O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 10 - oktabr 323-11-0-Q/23 Farg‘ona viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi “Jaxon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirsh chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4898-sonli qarori ijrosini jadallashtirish yuzasidan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi “Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4898-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda “Qishloq infraturizilmasini rivojlantirish” loyihasi (keyingi o‘rinlarda-loyiha) doirasida amalga oshiriladigan obyektlarni loyihalash va pudrat ishlari uchun xaridlarni tashkil etish yuzasidan tanlov va tender komissiya tarkibini qayta ko‘rib chiqish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi Qonuning 6, 25 moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2022-yil 10-may kunidagi 190-11-0-/22Q-sonli qarorining 1-2-ilovalariga o‘zgartirish kiritish ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Loyiha doirasida subloyihalarni loyihalash va pudrat ishlari uchun xaridlarni tashkil etishda “Jahon Bankining qarz oluvchilar uchun xaridlar qoidalari” (2016-yil iyulda ishlab chiqarilgan, 2017-yil noyabr va 2018-yil avgust oylarida qayta tahrirlangan), “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi va Jahon banki o‘rtasida imzolangan Qarz bitimi. Jahon banki tomonidan tasdiqlangan mazkur Loyihani amalga oshirish qo‘llanmasi hamda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-sonli “Davlat Xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni talablariga qatiy rioya

etilishi ta’minlansin.

3. Loyihani amalga oshirish davrida:

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasi doirasida pudrat tashkilotlarini aniqlash bo‘yicha doimiy faoliyat olib boruvchi tender komissiyasit tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Jahon banki talabiga ko‘ra, loyihani amalga oshirish guruhining xaridlari bo‘yicha mutaxassisi va Mahalla taraqqiyot guruhi vakili tender (tanlov) komissiyalari tarkibiga kiritilsin.

5. Viloyat hokimligining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK (X.Dolimov):

Loyiha doirasida amalga oshirilayotgan obyektlarning birlamchi ruxsat beruvchi, loyiha oldi hujjatlarini aniqlashga tender (tanlov)larini olish, hududiy qurilish sohasida nazorat qilish inspeksiya xizmatlari va Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmatining boshqa xarajatlari bo‘yicha viloyat Moliya bosh boshqarmasiga belgilangan tartibda doimiy ravishda talabnoma taqdim etsin.

Tegishli tashkilot va idoralar hamda tuman hokimlari bilan birgalikda qishloqlarni kompleks rivojlantirish uchun loyixa obyektlaridan tashqari amalga oshiriladigan tadbirlar manzilli dasturlar ishlab chiqsin va ekspertiza organlaridan belgilangan tartibda ijobiy xulosasidan o‘tkazsin.

6. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Ro‘zaliyev) tanlangan mahallalar kompleks rivojlantirish uchun mazkur loyiha doirasida vujudga kelayotgan harajatlar, jumladan, tanlovlar (tender)ni tashkil etish harajatlari “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUKning buyurtmachining boshqa harajatlari va loyiha doirasida buzish va majburiy ko‘chirish harajatlari mahalliy byudjet hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan moliyalashtirsin.

7. Aloqador viloyat tashkilotlari va tegishli tuman hokimlari:

Loyihani amalga oshirish jarayonida tanlab olingan qishloqlarning subloyihalarini sifatli va o‘z vaqtida samarali bajarilishida loyihani amalga oshirish guruhiga doimiy ravishda amaliy yordam bersin.

Tanlab olingan qishloqlarni kompleks rivojlantirish, bazaviy infratuzilma va

ijtimoiy soha obyektlarini o‘z vaqtida hamda sifatli topshirish, natijada aholi turmush darajasini yaxshilashga shaxsan ma’sul ekanligi belgilab qo‘yilsin.

8. Viloyat xokimining qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (X.Isaqov) loyiha tashkilotlarini aniqlash bo‘yicha tanlov komissiyasi va pudrat tashkilotlarini aniqlash bo‘yicha doimiy faoliyat olib boruvchi tender komissiyasi tarkiblariga belgilangan tartibda o‘zgartirish kiritish huquqi berilsin.

9. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni viloyat hokimining o‘rinbosarlari X.Sirojitdinov va X.Isaqovlar zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 10-oktabrdagi
323-11-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasi doirasida tanlov savdolari orqali loyiha tashkilotlarini aniqlash bo‘yicha tanlov komissiyasi

TARKIBI

1	X.Isaqov	Viloyat xokimining birinchi o‘rinbosari qurilish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, komissiya raisi
2	X.Dolimov	“Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK direktori
3	A.Berdiyev	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish guruhining xaridlar bo‘yicha mutaxassisi
4	B.Raximov	Qurilish va uy joy kommunal xo‘jalik bosh boshqarmasi o‘rinbosari Viloyat bosh Arxitektori
5	Sh.Teshaboyeva	“Shaxarsozlik hujjatlari ekspertizasi” DUK Farg‘ona viloyati filiali boshlig‘i v.v.b
6	Lavozimiga ko‘ra	Tanlangan mahalladagi Mahalla taraqqiyot guruxi raisi
7	A.Irgashev	Viloyat qurilishda tanlov savdolarini tashkil etish konsalting markazi direktori, komissiya kotibi

Izox: Tanlov komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda komissiya tarkibiga ushbu lavozimga yangitdan tayinlangan shaxs yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs kiritiladi. Komissiya kotibi komissiya a’zosi hisoblanmaydi va ovoz berish huquqiga ega emas.

Zarurat bo‘lganda tanlov komissiyasi boshqa manfaatdor tashkilotlardan mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Farg‘ona viloyat hokimining
2023-yil 10-oktabrdagi
323-11-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasi doirasida tender savdolari orqali pudrat tashkilotlarini aniqlash bo‘yicha faoliyat olib boruvchi tender komissiyasi

TARKIBI

1	X.Sirojiddinov	Viloyat xokimining birinchi o‘rinbosari, komissiya raisi
2	Z.Ro‘zaliyev	Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i, komissiya a’zosi
3	M.Mamatxanov	Viloyat Davlat Soliq boshqarmasi boshlig‘i, komissiya a’zosi
4	X.Dolimov	“Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati” DUK direktori, komissiya a’zosi
5	A.Berdiev	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish” loyihasini amalga oshirish guruhining xaridlar bo‘yicha mutaxassisi, komissiya a’zosi
6	Sh.Teshaboyeva	“Shaxarsozlik xujjatlari ekspertizasi” DUK Farg‘ona viloyati filiali boshlig‘i v.v.b, komissiya a’zosi
7	Sh.Xudoyberganov	Viloyat Qurilish sohasida xududiy nazorat inspeksiyasi boshlig‘i, komissiya a’zosi
8	Sh.Dolimov*	Viloyat Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘i, komissiya a’zosi
9	X.Mamajonov*	Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i, komissiya a’zosi
10	M.Yuldashev*	“Farg‘onasuvta’minot” MChJ direktor, komissiya a’zosi
11	A.Saydaliyev*	Farg‘ona Xududiy elektr tarmoqlari korxonasi AJ direktori, komissiya a’zosi
12	Lavozimiga ko‘ra	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, komissiya a’zosi
13	Lavozimiga ko‘ra	Bosh loyixachi tashkilot raxbarlari, komissiya a’zosi
14	Lavozimiga ko‘ra	Tanlangan mahalladagi Mahalla taraqqiyot guruxi raisi
15	A.Irgashev	Viloyat qurilishda tanlov savdolarini tashkil etish konsalting markazi direktori, komissiya kotibi

Izox: Teneder komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda tender komissiya tarkibiga ushbu lavozimga yangitdan tayilangan shaxs yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxs kiritiladi. Komissiya kotibi komissiya a’zosi hisoblanmaydi va ovoz berish huquqiga ega emas. Zarurat tug‘ilganda tanlov komissiyasi boshqa manfaatdor tashkilotlardan mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

**Qurilish ob’ekti turidan kelib chiqqan holda balansga oluvchi boshqarma, korxona raxbarlari qatnashadi.*